



LIFE AND SCHOLARLY ACTIVITIES OF NURIDIN SOBUNIY

Abduvali Pardayev

Scientific worker

Imam Moturidi International Research Center

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Nuriddin Sobuni, Fakhriddin Razi, doctrine of Moturidism, Hanafi jurisprudence, mutakallim, alias, scientific debate, discussion, tabaqat.

Received: 10.12.24

Accepted: 12.12.24

Published: 14.12.24

Abstract: The article discusses Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniy, a great mutakallim (theologian) and jurist from ancient Bukhara. He was born in the early 6th/12th century and is recognized as one of the prominent figures in the Maturidi school of thought. Sobuniy contributed significantly to the fields of kalam (theology), fiqh (Islamic jurisprudence), and usul al-fiqh (principles of Islamic jurisprudence).

The article also highlights that in his works, Sobuniy developed the intellectual ideas of Abu Mansur al-Maturidi and Abu al-Mu'in al-Nasafi, defending the Hanafi-Maturidi doctrine through his scholarly debates. He participated in intellectual discussions with renowned scholars such as Fakhr al-Din al-Razi. Additionally, it is noted that Sobuniy adopted the pen name "Sobuniy" due to his ancestors' involvement in soap-making.

NURIDIN SOBUNIY HAYOTI VA ILMUY FAOLIYATI

Abduvali Pardayev

ilmiy xodim

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Nuriddin Sobuniy, Faxriddin Roziy, moturidiylik ta’limoti, hanafiy fiqhi, mutakallim, taxallus, ilmiy-bahs, munozara, tabaqot.

Annotatsiya: Maqolada Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniy ko‘hna Buxorodan yetishib chiqqan buyuk mutakallim va fiqh olimi ekani, VI/XII asr boshlarida tug‘ilgani, moturidiylik

ta’limotining yirik namoyandalardan biri ekani, u kalom, fiqh va usulul fiqh fanlariga katta hissa qo’shgan olim ekani haqida so‘z yuritiladi.

Shuningdek, asarlarida Abu Mansur Moturidiy va Abul Muin Nasafiyning ilmiy qarashlarini rivojlantirgani, o‘zining ilmiy babs-munozaralari orqali hanafiy-moturidiy ta’limotini himoya qilib, Faxriddin Roziy kabi mashhur olimlar bilan o‘zaro ilmiy bahslarda qatnashgani va “Sobuniy” taxallusini ajdodlarining sovun ishlab chiqarish bilan shug‘ullangani sababli olganligi kabi ma’lumotlar tahlil qilindi.

ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НУРИДДИНА СОБУНИ

Абдували Пардаев

Научный сотрудник

Международного исследовательского центра Имама Мотуриди

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Нуриддин Собуни, Фахриддин Рази, учение мотуридизма, ханафитская Юриспруденция, Мутакаллим, псевдоним, наука-спор, дебаты, табагат.

Аннотация: В статье говорится, что Ахмад ибн Махмуд ибн Абу Бакр Нуриддин Собуни был великим мутакаллимом и ученым-фикхом, выросшим в старой Бухаре, родившимся в начале VI/XII веков, одним из крупнейших представителей учения мотуридизма, он был ученым, внесшим большой вклад в науку о каламе, фикхе и методах фикха. В его работах также были проанализированы такие данные, как развитие научных взглядов Абу Мансура Мотуриди и Абуль Муин Насафи, защита учения Ханафи-мотуриди через его собственные научные дебаты, участие во взаимных научных дебатах с известными учеными, такими как Фахриддин Рази, и получение прозвища “Собуни” из-за того, что его предки занимались мыловарением.

KIRISH

Ko‘hna Buxorodan yetishib chiqqan buyuk mutakallim, fiqh va usulul fiqh olimi Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniy haqidagi ma’lumotlar bir qancha tarojim va tabaqot kitoblarida keltirilgan. Ulardan Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiyning (696-775/1297-1273 y.) “Javahirul muziya fiy tobaqotil hanafiya”, Abul Fido Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘oning (802-879/1399-1474) “Taj’ut tarojim”, Taqiyuddin ibn Abdulqodir G‘oziyning (vaf. 1010/1601) “Tobaqotus saniya fiy tarojimil hanafiya”, Mulla Ali Qorining (vaf. 1014/1606) “Asmarul janiya

fiy asmail hanafiya”, Hoji Xalifaning (vaf. 1067/1657) “Kashfuz zunun a’n asamai kutub val funun”, Abulhasanot Muhammad Abdulhay Laknaviyning (vaf. 1304/1886) “Favaidul bahiya fiy tarojimil hanafiya”, Ismoil ibn Muhammad Posho Bag‘dodiyning (1255-1339/1839-1920) “Hadiyyatl orifin asmaul muallifin va asarul musonnifin” va boshqalar.

Nuriddin Sobuniy moturidiylik ta’limoti namoyondasi hisoblanib, ushbu ta’limot manbalarining shakllanishida beqiyos o‘ringa ega alloma hisoblanadi. Abu Muhammad kunyasi bilan mashhur bo‘lgan Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniy Buxoriy movarounnahrlik mutakallimlardan biri bo‘lib, u hanafiy fiqhi va kalom ilmi sohasiga ulkan hissa qo‘shtigan.

ASOSIY QISM

Nuriddin Sobuniy VI/XII asrning boshlarida tug‘ilgani taxmin qilinadi. Olim “Javahirul muziya”, “Ansob”, “Sullamul vusul” va boshqa shu kabi tabaqot va tarojim kitoblarida turli taxalluslar bilan zikr qilingan. Ulardan: “Nuruddin” (dinning nuri), “imom”, “imom Nuruddin Sobuniy”, “Nuruddin Sobuniy” (Abdulqodir Qurashiy, 1993:302) bo‘lib, kalom ilmiga oid kitoblarining aksariyatida olim “Nuruddin Sobuniy”, “Sohibul hidoya” va “Sohibul Kifaya” (Sa’duddin Taftazoniy, nashr yili ko‘rsatilmagan:45) taxallusi bilan keltiriladi. Faxriddin Roziy o‘zining “Munozarotu jarot fi biladi Movarounnahr” asarida aytib o‘tganidek (Roziy, nashr yili ko‘rsatilmagan:7), olim Buxoroda “Nuruddin Sobuniy” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Olimning nega aynan “Sobuniy” taxallusi ila zikr etilganiga Abdulqodir Qurashiyning “Javahirul muziya” asarida keltirilishicha, “Sobuniy” so‘zi dastlab Sovun tayyorlashga va Naysobur shahridagi Sovun ishlab chiqariladigan katta uyga nisbatan qo‘llanilgan. Nuriddin Sobuniyning ba’zi ajdodlari o‘sha uyda ishlab, faoliyat olib borganliklari uchun “Sobuniy” taxallusi bilan tanilgan. Shuningdek, olim vafot etgan joyi bo‘lmish asl vataniga nisbatan “Buxoriy” taxallusini ham olgan.

Tabaqot kitoblarida Sobuniy “Abu Muhammad” deya kunyalangan. Hoji Xalifa ham o‘zining “Sullamul vusul” asarida “Abu Muhammad” kunyasi bilan zikr qilgan bo‘lsa, “Kashfuz zunun” asarida xato o‘laroq “Abu Bakr” kunyasi bilan keltirib o‘tgan (Hoji Xalifa, nashr etilgan yili ko‘rsatilmagan:38). Bu xatoning boshlanishi oqibatida Bag‘dodiy, Ismoil Posho va Brokelman kabi tarixchilar ham Sobuniyning to‘liq ismini keltirishda “Abu Bakr” kunyasi bilan qayd etganlar. Yuqoridagi xatoning yuzaga kelishiga olimning ajdodlari silsilasida Abu Bakr ismli bobosi bo‘lgani ham taxmin qilinadi.

Allomaning “Abul Mahamid” degan kunyasi ham bo‘lib, bu kunya sifatida emas, balki madh o‘rnida “maqtovlar egasi” deya ifodalangan bo‘lishi mumkin. Yoki olimning ismi Ahmad, otasining ismi Mahmud, o‘g‘lining ismi Muhammad bo‘lgani e’tiboridan uning shajarasidagi

ushbu o‘zagi bir-biriga yaqin uch ismlar jamlangani uchun “Abul Mahamid” deb keltirilgan (Hoji Xalifa, nashr etilgan yili ko‘rsatilmagan:1499).

Olimning hayoti to‘g‘risida tabaqot kitoblarida keltirilgan ma’lumotlar bir-biriga yaqin va o‘xshash bo‘lgani uchun uning tug‘ilgan joyi va sanasi keltirilgan ma’lumotlarni uchratish mushkul. Bor ma’lumotlar esa uzuq-yuluq xabarlardan, ishonchli ekani o‘z tasdig‘ini topmagan manbalardan olingan bo‘lib, ularning barchasida olimning Buxoroga nisbat berilgani aytib o‘tiladi. Shu sababli ularning orasida Sobuniyning ilmiy-ma’rifiy hayotiga doir ma’lumotlar juda kam keltirilgan.

U haqida uchragan noyob ma’lumotlardan Nuriddin Sobuniyning umri davomida faqat haj uchun safar qilgani, safar asnosida Xuroson va Iroq diyorlariga borib, u yerlik ahli ilmlar bilan ilmiy majlislar o‘tkazgani qayd etilgan.

Bundan tashqari olimning boy oiladan bo‘lgani hamda uning ilm olishi va ilmiy faoliyatida yaqinlarining moddiy jihatdan ta’minlab turishi haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Uning oilasi nafaqat boylik balki, nasab jihatidan ham jamiyatda obro‘-e’tibor qozongan oilalardan edi.

Faxriddin Roziy o‘zining “Munozarotu jarot fi biladi Movarounnahr” kitobida keltirganiga ko‘ra Sobuniy umrining oxirgi yillarida hajga borib, safar asnosida Iroq, Xuroson yerlarida ilmiy majlislar o‘tkazgan. Bo‘lib o‘tgan ilmiy-bahs munozaralar, ilmiy majlislar Nuriddin Sobuniyi Movarounnahr va Buxoro shahrida turli ilmlarni egallaganiga, ulkan martabaga ega hanafiy, moturidiy olim ekaniga dalolat qiladi. Nuriddin Sobuniy umrining so‘ngida 850/1446 yilda Faxriddin Roziy bilan bo‘lib o‘tgan ilmiy bahs-munozarasidan Sobuniyni erta vafot topmagan, deya aytish mumkin (Abdulqodir Qurashiy, nashr yili ko‘rsatilmagan:124).

Nuriddin Sobuniy haqida tarjima-i hol keltirgan Kafaviy, Ibn Qutlubug‘o, Tamimi kabi tadqiqotchilar olimning vafoti borasida deyarli bir xil ma’lumotni keltirishgan. U kishi Buxoro shahrida chorshanba kechasi, shom namozidan keyin 580/1184-yil safar oyining 16-kuni/19-may kuni olamdan o‘tgan. Allomaning qabri “Quzotus sab’a” (Yetti qozi) qabristoniga qo‘yilgan. Ushbu qabriston Sovet ittifoqi davrida yo‘q qilib yuborgani aytildi (Sadriddin Salim Buxoriy, 2012:88).

Allomaning vafoti borasida ham ba’zi olimlar yanglish sanalarni keltirishadi. Ulardan Ismoil Posho Bag‘dodiying “Iyzohul maknun” kitobida 508/1114-yil deya, qayd etilgan. Bu xato muallifning o‘zi tomonidan yoki manba sifatida foydalangan kitobda nashriyot tomonidan sodir etilgan bo‘lishi ham mumkin. Imom Kafaviy va Leknaviy esa o‘z tabaqot kitoblarida olimning vafotini 580/1184-yil, safar oyining oltinchi kuni/19 mayda keltirishi ham yuqoridagi kabi ma’lumotning xato ekanini bildiradi (Kafaviy, nashr yili ko‘rsatilmagan:218).

Olimning vafoti borasida so‘ngi so‘z o‘rnida, aksariyat tabaqot kitoblarida Nuriddin Sobuniyning 580/1184-yilda vafot etgani va Buxorodagi “Quzotus sab‘a qabristoniga dafn etilganiga ittifoq qilingan.

Nuriddin Sobuniyning ustozlari sifatida faqat Ibn Qutlubug‘oning “Tajut tarojim” asari va boshqa manbalarda qayd etilgan Shamsulaimma Kardariyni keltirish mumkin. Olim undan fiqh ilmini o‘qigani zikr qilinadi. Shu o‘rinda takidlash joizki, Shamsulaimma Muhammad Kardariy ismli olim ham bo‘lib, u Sobuniyning shogirdi bo‘lgan.

Bu borada to‘liqroq ma’lumot olish uchun olimning ilmiy hayotiga oid ma’lumotlar keltirilgan tabaqot kitoblariga yuzlanildi. Ulardan “Tajut tarojim”, “Tobaqotus saniyya”, “Sullamul vusul” kabi kitoblarda Shamsulaimma Kardariy Sobuniyning ustozi bo‘lib, uning huzurida faqih bo‘lgani ya’ni fiqh ilmini o‘rgangani keltiriladi. “Sullamul vusul” kitobi muallifi Hoji Xalifa ushbu ma’lumotlarga qo‘sishimcha tarzda olimning Sadiyuddin Muhammad Asadiydan ham hadis rivoyat qilganini aytib o‘tgan.

Yaqin tarixni o‘z ichiga olgan tabaqot kitoblarda “Shamsulaimma Kardariy” olimning ustozi ekani qayd etilmagan. Chunonchi, “Javahirul muziya” kitobi qadimiylaridan sanalib, unda “Shamsulaimma Kardariy” Nuriddin Sobuniyning qo‘lida fiqh ilmini o‘rgangani keltiriladi. Bundan Nuriddiin Sobuniy Shamsulaimmaning ustozi ekani kelib chiqadi.

Imom Kafaviy Shamsul aimmaning to‘liq ismini keltirib, “Shamsulaimma Muhammad ibn Abdussattor Kardariy” deb, qaydlab qo‘yan. Bir qarashda “Shamsulaimma Kardariy”, “Shamsulaimma Muhammad Kardariy”, “Shamsulaimma Muhammad ibn Abdussattor Kardariy” ismlari orasida ziddiyat borga o‘xshaydi. Ushbu ziddiyat yuqorida keltirilgan “fiqh ilmini o‘rgangan” yoki “uning huzurida faqih bo‘lgan” iboralari sababidan yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Sobuniy haqida keltirilgan uch tabaqot kitob “Tajut tarojim”, “Tobaqotus saniyya”, “Sullamul vusul” kitoblarida ham shu kabi ma’lumot qayd etilgan.

Ushbu kitoblarda keltirilgan “Shamsul aimma” katta ehtimol bilan Abdulg‘ofur ibn Luqmon ibn Muhammad Shamsulaimma Kardariy (vaf. 562/1167) (rohimahulloh) bo‘lib, bu kishi hanafiy imomlaridan asli Kardarlikdir. Kardar Xorazm shahridagi bir qishloqdir.

Shamsulaimma Halab shahrida qozilik qilib, o‘sha yerda vafot etgan. Lekin Nuruddin Sobuniyning Shamsulaimma bilan ko‘rishib, undan fiqh ilmini o‘rgangani haqida yetarlicha ma’lumot yo‘q. Izlanishlar natijasida Abdulqodir Qurashiy “Javahirul muziya”da, Kafaviy “Kataibu a’lamil axbor” va Abdulhay Laknaviy “Favaidul bahiya” kitobida keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra “Shamsulaimma Kardariy” aslida Muhammad ibn Abdussattor ibn Muhammad Amadiy Kardariy Abul Vahda bo‘lib, “Shamsulaimma Kardariy” nomi bilan mashhurdir.

Shubhasiz, har bir olimning yetarlicha shogirdlari bo‘lib, ularning aksari ustozining vafotidan keyin uning ilmini o‘zgalarga tarqatishda xizmat qiladi. Shu kabi katta ehtimol bilan Nuriddin Sobuniyning ham ortidan qolgan yoki tirklik chog‘ida undan ta’lim olgan shogirdlari bor bo‘lgani haqiqatga yaqindir.

Lekin tarojim kitoblarida u kishining shogirdi sifatida Muhammad ibn Abdussattor Kardariydan boshqalari keltirilmagan. Muhammad ibn Abdussattor ustozi Nuriddin Sobuniydan hanafiy mazhabining usulini o‘rganib, ushbu mazhabning asl qoidalarini puxta o‘zlashtirgan.

Ibn Qutlubug‘oning “Tajut tarojim”, Abdulhay Laknaviyning “aFavaidul bahiya” va boshqa tabaqot kitoblarida Muhammad ibn Abdussattorning Burhoniddin Marg‘iloniydan ham fiqh ilmini o‘rgangani zikr qilinadi.

Uning “Tasisul qovaid fi ismatil anbiya”, “Arraddu val intisor li Abi Hanifa Imam fuqohail amsor”, “Qovaidl muni’a fiz Zubbi a’n Abi Hanifa”, “Hallu mushkilatil Quduriy” kabi asarlari mavjud.

Imom Muhammad ibn Abdussattor Kardariy 642/1244-yil vafot etgan.

Alloma haqida keltirilgan tabaqot kitoblarning aksariyatida Sobuniyning ilmiy faoliyati to‘laqonli ochib berilmagan. Tarojim kitoblarida Moturidiylik ta’limotining boshqa namoyondalari kabi Sobuniyning ham shaxsiyati to‘laqonli o‘rganilmagan. Lekin bu holat olimning fazlini va qadrini tushirmaydi.

Nuriddin Sobuniy va Faxriddin Roziy orasida bo‘lib o‘tgan ilmiy-bahs munozaralar hamda Sobuniy yozib qoldirgan asarlarini chuqur tadqiq qilish natijasida, uning Moturidiylik ta’limotiga ulkan xizmat qilgani ma’lum bo‘ladi.

Imom Moturidiy kabi Nuriddin Sobuniy ham salaflardan naql qilib, ularning qarashlari asosida ilmiy faoliyat olib borgan. Sobuniyning qo‘lida ta’lim olgan shogirdari va izdoshlarining hayotida ham buning isbotini ko‘rish mumkin.

Moturidiylik ta’limotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ushbu buyuk shaxsning yana bir yutug‘i, ushbu maktabning eng muhim bosqichi bo‘lmish ikkinchi bosqichida ishtirok etib, o‘zidan o‘chmas iz qoldirganidir. Ushbu ikkinchi bosqich kitob tasnif qilish bosqichi bo‘lib, u 500-700/1107-1301-yillar orasida davom etgan. O‘z o‘rnida ushbu davr Moturidiylik ta’limoti maktabining tamal toshi qo‘yilish davri hisoblanadi.

Olimning hozirgi kungacha yetib ketib asarlarini o‘rganish davomida uning kalom ilmida misli ko‘rinmas, yetuk olim bo‘lib imom Moturidiy mazhabining davomchisi va o‘z navbatida ushbu mazhab himoyachisi ekanini aytib o‘tish o‘rinlidir.

Nuriddin Sobuniy Faxriddin Roziy bilan munozaralarga kirishib, hanafiy-moturidiy aqidasini himoya qilgan. Bu munozaralar “Alloho ko‘rish”, “Takvin va mukavvan”, “Baqo sifati” xususida bo‘lib o‘tgan. Ushbu uch munozara Roziyning “Munozarotu jarot fi biladi

Movarounnahr” kitobida keltirilgan. Sobuniyning yana bir boshqa mavzuda olib borgan munozarasi “Yo‘q narsani ko‘rish mumkinmi yoki yo‘q” xususida bo‘lib, bu munozara Shayx Roshiduddin bilan kechgan. Munozara forschadan arabchaga tarjima qilinib, Abul Barakot Nasafiyning “E’timod fil e’tiqod” nomli kitobida keltiriladi.

Sobuniyning ilmiy faoliyatiga nazar solinsa, olimning asarlari sodda va tushunarli tilda yozilganiga guvohi bo‘lish mumkin. Olim asarlarida Abu Mansur Moturidiy va Abul Muin Nasafiyning qarashlarini ilgari surib, ushbu xizmatlari ila Moturidiylik ta’limotining tartibli bir mazhab sifatida shakllanishida o‘z hissasini qo‘shgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, Nuriddin Sobuniy qoldirgan ilmiy meros ya’ni yozgan asarlari uning ilmiy-ma’rifiy faoliyatini bilishda eng muhim manba hisoblanadi. Yana bir jihatdan olimning Faxriddin Roziy va Shayx Roshiduddin bilan olib borgan ilmiy munozaralari ham uning ilmiy faoliyati haqida xabar beradi. Bu borada tadqiqot olib borgan kishi Nuriddin Sobuniyning ilmiy salohiyatini yanada kengroq yoritib berish imkoniyatiga sazovor bo‘ladi.

Olim shaxsiyatini o‘rganish davomida uning Moturidiylik ta’limoti doirasida o‘ta mohir mutakallim ekani namoyon bo‘ladi. Kalom ilmida yuksak e’tirof qilingan olimning ilmiy salohiyati ham yuqori bo‘lish ehtimoli kattadir. Shunday bo‘lsa-da, Sobuniy o‘z asarlarida kalom ilmiga doir tushunish qiyin bo‘lgan turli masalalar va bahs-munozaralarni sodda iboralar, oson tushuniladigan so‘zlar ila bayon qilib bergen. Bu olimning o‘ziga xos jihat bo‘lib aynan shu xislati bilan boshqa olimlardan ajralib turgan.

Nuridiini Sobuniy Imom Moturidiy va u kishining shogirdi hisoblanmish Abul Muin Nasafiyning qarashlariga tayangan holda faoliyat olib bordi. Buning natijasi o‘laroq, Moturidiylik ta’limotining asoslarini yoritib berishda va uning tarqalishida katta xizmat ko‘rsatgan olim sifatida tan olingan. Asarlari bilan Moturidiylik ta’limoti merosining tashkil topishiga o‘z hissasini qo‘shgan olimlar sifatida tarixga kirdi.

Olimning asarlarini o‘qigan kishi Sobuniyning qay darajada ilmda mohir ekaniga guvoh bo‘ladi. Bunga qo‘srimcha tarzda, uning kalom ilmiga oid murakkab masala va anglash qiyin bo‘lgan jumlalarni tushunarli tarzda izohlab berishini ham keltirish mumkin.

Har bir olimning biror bir sohada o‘ziga yetarli kamchiligi bo‘lishi ehtimoli bor. Shu e’tibordan bu kabi ma’lumotlarni keltirish olimga past nazarda boqish yoki uning qadrini tushirish maqsadida emas, balki undagi barcha jihatlarni xolisona olib berish nuqtai nazaridan hisoblanadi.

Nuriddin Sobuniy asli arab bo‘lmagani bois, arabiylar so‘zlarni qo‘llashi ba’zi o‘rinlarda kamchilik keltirib chiqishiga sabab bo‘lgan. Ushbu kamchiliklar faqat grammatika ya’ni so‘zlarni sintaksis jihatdan ifodalanishida uchraydi.

Olimning kitoblarini o‘rganib chiqish natijasida, uning so‘z tanlash va ularni o‘z o‘rnida qo‘llashi turkiy iboralarning qo‘llanishiga o‘xshash ekani ma’lum bo‘ladi. Bundan, Nuriddin

Sobuniyning Buxoro ahlidan bo‘lgani tushunilsa, yana bir jihatdan uning asli kelib chiqishi turkiy millatga mansub ekani ma’lum bo‘ladi.

Nuriddin Sobuniy olib borgan ilmiy-bahs munozaralarni o‘rganish davomida, olim ushbu munozaralarda ikki til arab va turkiy tillarda bahs olim borganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari Sobuniyning Shayx Roshiduddin bilan fors tilida olib borgan bahsidan ushbu tilni ham chuqr o‘zlashtirgani ravshan bo‘ladi.

Ahmad ibn Mahmud Nuriddin Sobuniy Movarounnahr ilmiy an’analarining yorqin vakili bo‘lib, Islom ilmlarining rivojlanishida katta o‘rin tutgan. U fiqh va kalom sohalarida yuqori ilmiy darajaga yetishgan va o‘z davrining yetuk olimi sifatida tanilgan. Sobuniy o‘sha davrdagi Movarounnahr madaniy markazlarida faoliyat ko‘rsatib, Hanafiylik va Moturidiylik ta’limotlarini tarqatishda muhim rol o‘ynagan.

Tarixiy ma’lumotlar hamda olimlarning hayoti va ijodi keltirilgan tabaqot kitoblarni o‘rganish orqali Nuriddin Sobuniyning yozgan asarlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhda olim yozgani aniq deb topilgan kitoblar keltirilgan bo‘lsa, ikkinchi guruhda Sobuniyga nisbat berish xato bo‘lgan kitoblar o‘rin olgan. Olimga nisbat berish to‘g‘ri bo‘lgan, birinchi guruh kitoblari tabaqot kitoblari va qo‘lyozmalar saqlanadigan kutubxonalardan olingan ma’lumotlar yordamida aniqlandi. Ular uchta kitob bo‘lib, quyida har biri to‘g‘risida yetarlicha ma’lumot berib o‘tiladi:

1. *البداية في أصول الدين* – “Bidaya fi usulid din”.

Tabaqot va tarojim janrida yozilgan kitoblarda ushbu kitob Nuriddin Sobuniy tomonidan yozilgani tasdiqlangan. Hatto ba’zi kitoblarda xususan, Abulhasanot Laknaviyning “aFavaidul bahiya fi tarojimil hanafiya” asarida, Abdulqodir Qurashiyning “Javahirul muziya fi tabaqotil hanafiya” asarida, Muhammad ibn Abdurrahmonning “Usulid din indal imam Abi Hanifa” nomli asarida Sobuniy “Sohibul Bidaya fi usulid din” (“Bidaya fi usulid din” kitobi muallifi), “Sohibul Bidaya” (“Bidaya” kitobi muallifi) taxallusi ostida qayd etilgan.

Muallifning “Bidaya fi usulid din” kitobi “Kifaya fil hidaya” kitobining talkisi (ya’ni qisqartmasi) hisoblanadi. Ushbu “Kifaya fil hidaya” kitobi “Bidaya” kitobidan oldin yozilgan bo‘lib, olim kitob muqaddimasida bunga ishora qilib ketgan (Nuriddin Sobuniy, 1969:34).

Allomaning kitoblari orasida eng ko‘p tarqalgani hamda ilm ahllari orasida mashhurrog‘i “Bidaya” kitobi hisoblanadi. Ushbu kitobning ixcham va muxtasar tarzda yozilgani uni keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

“Bidaya fi usulid din” kitobining bir qancha qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ular dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib kelmoqda. Ulardan biri Turkiyadagi “Sulaymoniya” kutubxonasi, “Lalili” fondida 2271-raqam ostida saqlanayotgan nusxasidir. Ushbu nusxa asl deb, e’tiborga olingan bo‘lib, yigirma to‘rt varaqdan iboratdir. Qolgan qo‘lyozma nusxalar esa,

quyidagi raqamlar ostida turli kutubxonalarda saqlanmoqda. “Sulaymoniya” kutubxonasi, “Ashur afandi” fondida 181-raqam ostida, “To‘pqopi saroyi muzeyi” kutubxonasining “Ahmad III” bo‘limida ikki qo‘lyozma nusxa bo‘lib, ular 1880, 1884-raqam ostida, “Boyazid Valiyuddin” kutubxonasida ham uchta qo‘lyozma bo‘lib, ular 2128, 2129, 2148-raqamlar ostida, “Shahid Ali posho” nusxasida 1704, “Asmahon Sulton” nusxasida 242, “As’ad afandi” nusxasida 432, “Qasidachi zoda” nusxasida 735, “Xoji Salim Og‘a” nusxasida 657-raqam ostida saqlanadi.

“Bidaya minal kifaya fil hidaya fi usulid din” kitobining hajmi “Kifaya fil Hiday” asarining to‘rtadan bir qismiga to‘g‘ri keladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, “Kifaya fil Hiday” asari “Bidaya minl kifaya fil hidaya fi usulid din” kitobining to‘liq shakli hisoblanadi. Kitob o‘z ichiga kalom ilmiga oid ilmiy meros hisoblanuvchi asarlarda keltirilgan barcha masalalarni qamrab olgan.

2. – ”المنقى من عصمة الأنبياء“ – “Muntaqo min ismatl anbiyo”.

Nuriddin Sobuniyning hayoti va ijodi keltirilgan tabaqot kitoblarida ushbu kitob haqida biror bir ma’lumot aytilmagan. Hatto olimning tarjimayi holini yozgan Hoji Xalifa, Kafaviy, Abdulhay Laknaviy kabi olimlar ham “Muntaqo” kitobini Sobuniyga nisbat berishmagan.

Bu kitob haqida faqat Sobuniyning o‘zi, “Kifaya fil hidaya” kitobining nubuvvat masalalari mavzusida ishora qilib ketgan. Sharqshunos olim Brokkel’man ushbu kitobni “Ismatul anbiyo” nomi bilan keltirib o‘tgan. Izlanishlar davomida, “Muntaqo min i’smatil anbiyo” kitobining muqaddimasida muallif ushbu kitobni o‘zi yangidan alohida bir mavzu topib yozmaganini ta’kidlab, ushbu “Muntaqo” kitobi Abulhusayn Muhammad ibn Yahyo Boshag‘oriyning (vaf. IV\X asr) “Ismatul anbiyo” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Kashf al-g‘ovamiz li ahvali al-anbiyo” kitobining talxisi, ya’ni qisqartma shaklida yozilgan asar ekani ma’lum bo‘ldi, (Nuriddin Sobuniy, 2014:22).

Nuriddin Sobuniy “Muntaqo” asarining muqaddimasida, “Kashful g‘ovamid” asarini bilish istagida bo‘lganlar uchun oson qilib sharhlab berganini aytib o‘tadi. So‘ngra tolibi ilmlar bilishi zarur bo‘lgan masalalarni sodda, kichik hajmda keltirganini ta’kidlab, uning “Muntaqo” asari talxis janrida yozilgan asar ekaniga ishora qilib ketgan.

Ushbu kitob o‘n beshta mavzudan iborat bo‘lib, tadqiqotchi unda keltirilgan masalalarni uch qismga bo‘lib keltirgan. Birinchi qism payg‘ambarlarni afzal ko‘rish, ularning adadi va gunoh-ma’siyatlardan ma’sum ekani haqida bo‘lsa, ikkinchi qism Odam, Nuh, Ibrohim, Ya’qub, Yusuf, Muso, Dovud, Sulaymon, Ayyub, Yunus, Shu’ayb, Zakariyo alayhimussalom kabi payg‘ambarlar to‘g‘risida bo‘lib, ular haqida keltirilgan oyatlarni har birlarining sha’nlarigi mos tarzda tafsir qilib keltiriladi.

So‘nggi uchinchi qism esa payg‘ambarlarning sayyidi bo‘lmish Muhammad (alayhissalom)ning ulug‘ darajalari va yuksak martabalari xususidadir. Bu bo‘limda Nabiy

(alayhissalom) borasida tanbeh deb keltiriladigan oyatlarning ba’zilarini boshqasi bilan solishtirib, u zotning sha’nlariga muvofiq uslub bilan tafsiri keltirilgan.

3. ”الكافية في الهدایة“ – “Kifaya fil hidaya”.

Nuriddin Sobuniy ushbu asarni “aBidaya fi usulid din” kitobining muqaddimasida zikr qilgan bo‘lib, unda: “Allohga hamd-u sanolar bo‘lsin, “Kifaya fil hidaya” kitobini yozib tugatganimdan so‘ng, ba’zi yaqinlarim ushbu kitobdagи asosiy masalalarni mo‘jaz so‘zlar ila yozib, yodlashga oson bo‘lsin uchun bir bobda jamlab berishimni so‘rashdi...” (Nuriddin Sobuniy, 1969:34) degan so‘zlarni keltirgan. Olimning ushbu muqaddimasidan “Kifaya fil hidaya” kitobi ham unga tegishli ekani ravshan bo‘ladi.

Nuriddin Sobuniy “Kifaya” kitobini yozishda imom Abu Mansur Moturidiyning manhaji bilan deyarli bir xil uslubni qo‘llagan bo‘lib, olim ahli sunna mutakallimlari kabi kalom ilmiga doir bir masalani turli jihatlardan ochib bergen. Uning uslubi aqliy dalillar bilan aqlning o‘rnini e’tiqodiy masalalarda nechog‘lik muhim ekanini bayon qilib keltirishida namoyon bo‘ladi. Olim o‘z qarashlarini ahli sunna val jamoa aql va naql o‘rtasida belgilab bergen chegaradan o‘tmagan holda bayon qilib bergen. Nuriddin Sobuniy asarda Qur’oni karim oyatlari yoki hadisi sharifda kelgan ochiq masalalarni noo‘rin ta’villar bilan sharhlashdan yiroq bo‘lgan.

XULOSA

Xulosa qilinganda, Nuriddin Sobuniy asarlarida hanafiy mazhabi fiqhi va moturidiy aqidasi bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan. U kalom sohasida ham yetuk mutaxassis bo‘lib, Islom teologiyasi doirasidagi murakkab masalalarni yechishda o‘zining teran fikrlari va dalillarini keltirgan. Sobuniy ilmiy munozaralarda ishtirok etib, aqida va fiqh masalalarida ko‘plab muhim natijalar chiqargan.

Sobuniy nafaqat o‘z ilmiy asarlari, balki talabalari orqali ham o‘zidan keyingi avlodlarga bilim va meros qoldirgan. Uning talabalari va izdoshlari orqali hanafiylik va moturidiylik ta’limoti yanada keng tarqalib, butun musulmon dunyosida katta hurmat qozongan.

Shuningdek, Sobuniy movarounnahrning ilmiy maktablarini rivojlantirish va mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynagan. Uning asarlari va ta’limotlari hozirgi kunda ham musulmon olimlari va tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilib, islomiy ilmlar tarixida alohida o‘rin egallaydi. Bu holat uning ilm-fan sohasidagi ulkan hissasi va merosining yuksak qiymatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy (1993). Javahirul muziya fi tobaqotil hanafiya // D. Abdulfattoh Muhammad tahqiqi. Qohira: Dor hijr.
2. Abulfido Zayniddin Qosim ibn Qutlubug‘o (1992). Tajut tarojim // Muhammad Xoyr Ramazon Yusuf tahqiqi. Damashq: Dorul qalam.

3. Taqiyuddin ibn Abdulqodir G‘oziy (nashr etilgan yili ko‘rsatilmagan). Tobaqotus saniya fi tarojimilhanafiya. Halab: Dorur rifaiy.
4. Mulla Ali Qori (2009). Asmarul janiya fi asmail hanafiya //Abdulmuhsin Abdulloh Ahmad tahqiqi. Bag‘dod: Markazul buhus vad dirosatil islamiya.
5. Hoji Xalifa (1941). Kashfuz zunun a’n asamail kutub val funun. Bayrut: Dor ihyaut turos.
6. Abulhasanot Laknaviy (1906). Favaidul bahiya fi tarojimil hanafiya. Qohira: Dorus sa’adah.
7. Ismoil ibn Muhammad Poshsho (1951). Hadiyyatul orifin asmal muallifin va asarul musonnifin. Bayrut: Dor ihyaut turos.
8. Sadriddin Salim Buxoriy (2012). Buxoroning tabarruk ziyorotgohlari. Buxoro: (Nashr etilgan joyi ko‘rsatilmagan).
9. Nuriddin Sobuniy (1969). Bidaya minal kifaya fil hidaya fi usulid din // Fathulloh Xulayf tahqiqi. Misr, Dorul maorif.
10. Nuriddin Sobuniy (2014). Muntaqo min i’smatil anbiya // Muhammad Bulut tahqiqi. Istanbul: Dor ibn Hazm.